• FRA – bu kompaniyalar tomonidan kelajakdagi qisqa muddatli pul mablag'lari profisitidan olinadigan foiz daromadlarini yoki kelajakdagi qisqa muddatli pul mablag'lari defisiti bilan yuzaga keladigan foiz to'lovlarini hisobga olish uchun ishlatiladigan pul bozori instrumentidir; • Kelajakda likvidlik defisitini kutayotgan kompaniyalar o'zini foiz stavkasining o'sishidan sug'urtalash maqsadida FRA ni sotib olishi mumkin; • FRA ni sotadigan tashkilotlar kelajakdagi likvidlik profisitida olinadigan foiz daromadlarining qulashidan sug'urtalanadi.	• Fyucherslar – bu pul bozorida muomalada bo'ladigan moliyaviy instrumentlardir; mohiyatan bu FRA kabi kompaniyalar o'rtasida tuziladigan shartnoma; • Fyuchersning FRA dan farqi - pul bozori fyuchersi xaridori asosiy aktivni etkazib berish bilan emas, balki pul hisob – kitoblari bilan hisoblashadi; • Pul bozori fyuchersi sotuvchisi agar tegishli foiz stavkasi ko'tarilsa qandaydir pul mablag'lariga ega bo'ladi; • Valyuta fyucherslarida bo'lgani kabi, pul bozori fyucherslarining amal qilish muddati davomida uning kursi qayta hisoblab chiqiladi va tomonlardan biri darhol foyda ko'radi, ikkinchisi esa zarar.	• Foiz svoplari – bu muayyan davrda tomonlar o'rtasida foiz oqimlarini bir xil valyutada ayirboshlash to'g'risidagi kelishuvdir; • Faqat foiz oqimlari ayirboshlanadi, bu shartnoma asosiy kredit summalariga taalluqli emas; • FRA dagi kabi, tomonlar shartli asosiy summa haqida kelishishib, bu summaning asosida ayirboshlanishi kerak bo'lgan foizlar hisoblanadi; • Aksariyat foiz svoplarida muayyan vaqt davomida bir tomon boshqa tomonga o'zgaruvchan foizlarni to'laydi; • Ikkinchi tomon shartnoma muddati davomida oldindan belgilangan stavka bo'yicha birinchi qat'iy belgilangan foizlarni to'laydi.

1-rasm. Foiz riskini xedjerlashning asosiy instrumentlari [4]



Mahalliy tadqiqotchi Hamroev Sh. bank risklarini, jumladan foiz riskini boshqarish va monitoring qilish tizimini takomillashtirishda xalqaro Bazel qo'mitasi talablariga asoslanish zarurligini ta'kidlab, tijorat banklari ushbu yo'nalishda bir qator muhim vazifalarni amalga oshirishi lozimligini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, banklar o'z faoliyat xususiyatidan kelib chiqib operasion, likvidlik, foiz, valyuta va kredit risklari bo'yicha zamonaviy stress-test modellarini joriy etishi, risklarni boshqarish va monitoring jarayoniga limitlash tizimlari, vakolatlarni aniqlashtirish, qarorlar qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda risklar bo'yicha muntazam va shaffof hisobot berish amaliyotini tatbiq etishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchi shuningdek, risklarni kompleks o'rganishda samaradorlikni oshirish uchun bank boshqaruvi organlari tomonidan risklarni boshqarish jarayonini bankning biznes jarayonlariga chuqur integratsiyalashgan "uchta himoya chizig'i" — ya'ni risklarni qabul qilish, risklarni boshqarish va ichki audit tizimi orqali tashkil etish ijobiy natijalar berishini alohida ta'kidlaydi [5].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijlik va MDH mamlakatlari, xususan rossiyalik tadqiqotchilar tijorat banklarida aynan foiz riskini boshqarish amaliyoti bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borayotgan bir paytda, mahalliy tadqiqotchilar ko'proq umumiy bank risklarini boshqarish masalalariga e'tibor qaratmoqda. Bu esa O'zbekiston tijorat banklarida foiz riskini boshqarishning alohida yo'nalish sifatida yetarlicha o'rganilmayotganini anglatib, mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini yanada kuchaytiradi hamda ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola xalqaro IMRAD tuzilmasi talablariga to'liq rioya etilgan holda tayyorlangan bo'lib, unda uch asosiy tadqiqot usuli — ilmiy–nazariy tahlil, nazariy–amaliy tahlil va iqtisodiy–statistik tahlil usullari qo'llanildi. Ilmiy–nazariy tahlil usuli maqolaning "Mavzuga oid adabiyotlar tahlili" qismi uchun to'plangan ilmiy manbalarni chuqur o'rganish va ularni nazariy jihatdan tahlil qilishda foydalanildi. Iqtisodiy–statistik tahlil usuli esa maqolaning "Tahlil va natijalar" qismida bank faoliyati va foiz riski bilan bog'liq statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilishda qo'llandi. Nazariy–amaliy tahlil usuli mazkur ikki bo'limning har ikkala bosqichida qo'llanilib, nazariy qarashlarni amaliy ma'lumotlar bilan uyg'un holda tahlil qilish imkonini berdi.

Ilmiy maqola uchun ma'lumotlarni to'plash jarayonida asosan Google, Google Scholar, Yandex qidiruv tizimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-saytida chop etilgan hisobotlar va statistik byulletenlardan keng foydalanildi. Ushbu manbalar tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.


Maqolani tayyorlash jarayonida axborotlardan oqilona foydalanish, mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka qat'iy rioya etish, shuningdek plagiat xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan "copy–paste" usulidan butunlay voz kechish prinsiplariga amal qilindi. Bunday yondashuv tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotini o'rganish va zarur ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish —ga samarali erishishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 4/11-sonli qarori¹ bilan tasdiqlangan Nizomda tijorat banklarida bank risklari, jumladan foiz risklarini boshqarish tizimi batafsil ko'rsatib berilgan bo'lib, ushbu tizimning tuzilishi 2-rasmda tasvirlangan. Mazkur rasimga asoslanib aytish mumkinki, tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi to'rtta asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lib, har bir qism foiz riskini samarali boshqarish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi foiz riskini boshqarish jarayonining asosiy poydevorini tashkil etib, barcha faoliyatlarni tartibli va tizimli ravishda amalga oshirish imkonini yaratadi. Risklarni boshqarish madaniyati esa bank xodimlarining foiz riski bo'yicha xabardorliklarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib, ushbu madaniyatning rivojlanishi risklarni to'g'ri qabul qilish va baholashni ta'minlaydi. Ba'zi tijorat banklarida ushbu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash zarurati mavjud bo'lsa-da, boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarning qo'llanilayotgani ijobiy holat sifatida baholanadi. Risklarni boshqarishga oid ichki hujjatlar foiz riskini tartibga solishda muhim normativ asos bo'lib xizmat qilmoqda; ular boshqaruv organlari va xodimlarning foiz riskiga nisbatan mas'uliyatli yondashuvini shakllantirishga yordam beradi. Risklarni boshqarish va hisobot tayyorlashga mo'ljallangan axborot tizimlarining samarali ishlashi esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida va sifatli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekistondagi deyarli barcha tijorat banklari o'z risk boshqaruv tizimlarini aynan 2-rasmda ko'rsatilgan talablarga muvofiq shakllantirishga intilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi 4/11-son qaroriga <https://lex.uz/ru/docs/-6436466>

Nizomda risklarni boshqarish jarayonida qo'llaniladigan bir qator atamalar ham keltirilgan bo'lib, tadqiqotlarda ko'p uchraydigan va amaliy ahamiyat kasb etadigan ayrim tushunchalarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Risk-appetit bankning strategik maqsadlari va biznes-reja ko'rsatkichlariga erishish jarayonida qabul qilishga tayyor bo'lgan sezilarli risklarning umumiy miqdorini anglatadi. Risk-appetit bayonoti esa bank kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan va bankning risk-appetit doirasini belgilab beradigan muhim hujjat hisoblanadi. Risk profili esa belgilangan sanada bankda mavjud bo'lgan sezilarli risklarning umumlashgan hamda har bir risk turi bo'yicha alohida ko'rinishdagi miqdoriy bahosini ifodalaydi. Ushbu tushunchalarning mazmuni tijorat banklari faoliyatida risklarni oqilona boshqarish, ularni baholash va monitoring qilish jarayonlarini takomillashtirishda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).



2-рasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi[6]



Risklarni boshqarish jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biri bo'lgan stress-test o'tkazish — bu kam ehtimollik bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan risklar yuzaga kelgan taqdirda bankning moliyaviy holatiga ta'sirini oldindan baholash imkonini beruvchi muhim usul hisoblanadi. Shuningdek, sezilarli risklar tarkibiga bank faoliyatida eng ko'p uchraydigan kredit, likvidlik, bozor, operasion va komplaens risklari kiradi. Risklarni boshqarish tizimi esa bank faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha risklarni tizimli aniqlash, o'lchash, monitoring qilish, nazorat qilish, hisobot yuritish va ularni kamaytirishga qaratilgan boshqaruv choralari, shuningdek bank boshqaruv organlari va risklarni boshqarishga mas'ul bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi atamalardan stress-test o'tkazish, risk profili, sezilarli risklar, shuningdek kredit, likvidlik, bozor va operasion risklar ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, risk-appetit, risk-appetit bayonoti va komplaens risk tushunchalari nisbatan kam uchraydi. Buning sabablari sifatida ushbu atamalarning ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o'rganilmaganligi, bank amaliyotida bu tushunchalarning mamlakatimiz sharoitida hali yangi bo'lib, mahalliy adabiyotlarda, xususan hisobot va tahliliy materiallarda keng qo'llanilmayotganligi hamda tijorat banklarida risklarni boshqarish bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar sonining cheklanganligi tufayli ushbu yangi atamalarning amaliyotda keng tatbiq etilishi ma'lum qiyinchiliklarga duch kelayotgani kabi omillar ko'rsatib o'tiladi. Biroq ushbu mulohazalar bizning shaxsiy ilmiy farazlarimiz bo'lib, mavjud holat ushbu atamalarni chuqur o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda kelgusida ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirishga asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni² [7], 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son qarori³ [8] hamda 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori⁴ [9]ga muvofiq, davlat ulushi mavjud bo'lgan Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Xalq banki, Agrobank, Mikro kreditbank va Qishloq qurilish banki (hozirgi Biznesni rivojlantirish banki) kabi tijorat banklarining aksiyalarini fond birjalari orqali ommaviy joylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish va shaffoflikni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, mazkur tijorat banklarida Markaziy bank tomonidan korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda hamda bank risklari, jumladan foiz riskini boshqarish ushbu tizimning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida risklarni boshqarishga doir alohida siyosat ishlab chiqilgan bo'lib, unda risklarni boshqarish tizimi to'liq qamrab olingan. Ayniqsa, ushbu bankda qo'llanilayotgan "uchta himoya chizig'i" tamoyili alohida e'tiborga loyiqdir. Bu tamoyilning qo'llanilishi Hamroev Sh. tomonidan ilgari surilgan ilmiy yondashuvlarga hamohang bo'lib, bankda risklarni qabul qilish, ularning darajasini chegaralash, nazorat qilish va audit jarayonlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Bankning tashkiliy tuzilmasi mazkur tamoyilga muvofiq shakllantirilgani bois, funktsiyalar va javobgarliklar bo'linmalar o'rtasida oqilona taqsimlanadi. Har bir himoya chizig'i doirasidagi vazifalar bitta bo'linma tomonidan emas, balki bir nechta bo'linmalar tomonidan bajarilishi mumkinligi esa risklarni yanada mukammal boshqarish imkoniyatini yaratadi; 2-jadvalda ushbu tamoyil asosida shakllantirilgan risklarni boshqarish tizimi ifodalangan.

O'zbekiston tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotining bugungi holatini tahlil qilish faqat risklarni boshqarish tizimini o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki foiz riskini minimallashtirish uchun amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlarni baholashni ham o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan asosiy foiz stavkasini pasaytirish, tijorat banklarining kapitali va sof foydasini oshirish, kredit portfelida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu amaliy chora-tadbirlar mamlakat tijorat banklarida foiz riskini boshqarish sifatining asta-sekin takomillashib borayotganini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash foiz riskini kamaytirishning samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida kredit portfeli tarkibini diversifikatsiya qilish masalasini tahlil qilish mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy xulosalar shakllantirish imkonini beradi (2-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.04.2021 yildagi PF-6207-son <https://lex.uz/docs/-5371091?ONDATE=14.04.2021>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.01.2022 yildagi PQ-90-son <https://lex.uz/uz/docs/-5825745?%2000>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.04.2024 yildagi PQ-162-son <https://lex.uz/docs/-6898706?query=nazorat&exact=1>



2-jadval. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining risklarni boshqarish organlari tizimi[10]

Himoya chiziqlari	Risklarni boshqarish bo'linmalari hamda ularni aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilish, shuningdek risklar bo'yicha hisobotlar tayyorlashga mas'ul bo'lgan tuzilmalar
1-himoya chizig'i	Bankning barcha tuzilmaviy bo'linmalari: Ijro apparati, G'aznachilik departamenti, loyihaviy moliyalashtirish markazi, korporativ aloqalar va investisiyalar bo'yicha departament, kredit departamenti, chakana biznes departamenti, muammoli loyihalar bilan ishlash departamenti, Ipoteka kreditlash boshqarmasi, Davlat dasturlarini moliyalashtirish departamenti, kredit qarzdorligini undirish departamenti, kichik va o'rta biznes departamenti, banklararo hisobkitob markazi, bank tarmog'i va servisini rivojlantirish departamenti, marketing xizmatlari markazi, axborot texnologiyalari departamenti, xodimlar bilan ishlash departamenti, tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi, ishlarni boshqarish departamenti, buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti, transformasion ofis, axborot xizmati, monitoring va kreditlarni vaqtli undirish bo'yicha departament
2-himoya chizig'i	Risklarni boshqarish bo'yicha departament, ichki nazorat departamenti, axborot va bank xavfsizligi departamenti, yuridik departament
3-himoya chizig'i	Ichki audit departamenti

Mazkur masalani yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida e'tiborni 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qaratish zarur. Ushbu jadvalda 2022–2024-yillar davomida tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlarning tarmoqlar kesimida taqsimlanishi o'rganilgan. Jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kreditlar bir yoki ikki tarmoqqa emas, balki olti va undan ortiq tarmoqlarga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayon kredit portfelining diversifikatsiya qilinayotganidan dalolat beradi. Ayni vaqtda bunday yondashuv mamlakat tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish borasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Kredit portfelining tarmoqlar kesimida diversifikatsiya qilinishi foiz riskining potentsial tahdidlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki kreditlar turli tarmoqlarga taqsimlangan holatda, ayrim tarmoqlarda kreditning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo'lganda ham boshqa tarmoqlarda qaytarilish darajasi yuqori bo'lishi natijasida bankning umumiy daromadliligi barqaror saqlanadi. Shu nuqtai nazardan, kredit portfelini muntazam diversifikatsiya qilib borayotgan banklarda risklarni, jumladan foiz riskini boshqarish tizimi samarali yo'lga qo'yilganini ta'kidlash mumkin.

Masalaning yana bir muhim jihati shundan iboratki, kredit portfelini izchil diversifikatsiya qiladigan tijorat banklari bozor sharoitlari, talablar va kon'yunktura o'zgarishlariga moslashuvchan bo'lib, o'z kapitali va likvidligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday yondashuv banklarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga, foiz risklari ta'sirini minimallashtirishga va kreditlash siyosatini iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston tijorat banklari tomonidan 2022–2024 yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar (tarmoqlar kesimida, mlrd so'm) [11]

T/r	Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024
Jami ajratilgan kreditlar:		69770,3	73009,4	92424,8
1.	Sanoat	20312,1	19423,4	23590,0
2.	Qishloq xo'jaligi	6313,2	7879,4	14557,5
3.	Qurilish	6944,2	6439,6	7010,3
4.	Savdo va umumiy ovqatlanish	17159,9	18905,2	30636,7
5.	Transport va kommunikasiya	8943,0	6465,5	4600,8
6.	Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	9094,4	9495,2	6346,5
7.	Boshqalar	1003,6	4401,2	5683,1

Umuman olganda, tijorat banklari operasion daromadining asosiy manbaini marja — ya'ni depozit va kredit foizlari o'rtasidagi farq — tashkil etganligi bois, ular uchun boshqa bank risklariga nisbatan foiz riskini boshqarish amaliyotini muntazam ravishda takomillashtirib borish zarurati mavjud. Bugungi kunda mamlakatda tijorat banklarining salmoqli qismi davlat tasarrufida faoliyat yuritayotgani, shuningdek xususiy va xorijiy banklarning mahalliy bozor uchun nisbatan yangi ishtirokchilar sifatida shakllanib borayotgani sababli foiz riskini boshqarish amaliyoti asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda.



Shu bilan birga, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud tijorat banklarini bosqichma–bosqich xususiyashtirish hamda banklar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgani, kelgusida tijorat banklarining foiz riskini boshqarish bo'yicha mustaqil, innovatsion va bozor talablariga mos strategiyalarni ishlab chiqishlari hamda samarali amaliyotlarni shakllantirishlari uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunday yondashuv tijorat banklarining foiz riski bilan bog'liq tavakkalchiliklarni minimallashtirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqobatdoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyoti borasida sezilarli ijobiy natijalar qo'lga kiritilayotganiga qaramay, ushbu amaliyotning jadal rivojlanayotgan xalqaro va mahalliy bozor talablariga moslashuvchanligini oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va foiz riskini samarali boshqarish darajasini yanada oshirish maqsadida bir qator ilmiy–amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, davlat tasarrufidagi tijorat banklarining aksiyalarini fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish va ularning muvaffaqiyatli IPO jarayonlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bu jarayon banklar kapitalining o'sishi, fond bozorida faolligining ortishi hamda foiz riskiga qarshi barqarorlikning oshirilishiga xizmat qiladi. Buning uchun korporativ boshqaruv tizimini fond bozori va xorijiy investorlar talablariga mos ravishda yaxshilash, shuningdek banklarning aksiyalarning bir qismini xodimlarga berish mexanizmini sifat jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, Markaziy bankning 2023-yil 7-martdagi 4/11-son qarori⁵da belgilangan zamonaviy risklarni boshqarish talablari doirasida tijorat banklari foiz riskini boshqarish tizimini amaliy jihatdan chuqur rivojlantirishlari talab etiladi. Bu borada foiz riskiga oid moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini yaratish, risklarni boshqarish jarayonida ishtirok etadigan xodimlar uchun kompleks fikrlash⁶ ko'nikmalarini rivojlantirish va ichki boshqaruv samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakatda foiz riskini boshqarish bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatadigan kompaniyalar faoliyatini qo'llab–quvvatlash zarur. Bunday kompaniyalar tijorat banklarining foiz riskiga duchor bo'lish darajasini baholash, foiz stavkalari bo'yicha bozor tendensiyalarini sharhlash hamda kredit, depozit va xedjerlash mahsulotlari asosida kompleks yechimlar taklif etish orqali banklarning risk boshqaruv tizimiga samarali yordam ko'rsatishi mumkin.

Kredit portfelini diversifikatsiya qilish jarayonini rivojlantirish ham foiz riskini kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada tijorat banklari mijozlarning ehtiyojlari va bozor talablarini muntazam o'rganib borishi, kredit portfeli diversifikatsiyasiga doir ekspert fikrlari muhokama qilinadigan xalqaro va mahalliy onlayn platformalarda faol ishtirok etishi, shuningdek bank aktivlari holatini doimiy monitoring qilish tizimini kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotini yanada rivojlantirish zamonaviy bilim va ilg'or texnologiyalarni talab etadi. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida amalga oshirilgan tahlillar hamda ishlab chiqilgan ilmiy–amaliy tavsiyalar kelgusida foiz riskini samarali boshqarish bo'yicha olib boriladigan izlanishlarga munosib hissa qo'shishga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2020-yil 12-may, PF–5992-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF–158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. John Stephens. Interest Rate Risk Management in Today's Economy (online). Workiva. Available from: <https://www.workiva.com/blog/interest-rate-risk-management-in-banks> (Published: November 29, 2023).
4. Самойлов Н. А. Инструменты управления процентными рисками // Журнал Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. 2020, №1 (43). Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет. S. 29-33.
5. Hamroev Sh. Bank risklarini oldini olish va minimallashtirish masalalari // Science and Education Scientific Journal. May 2023. Volume 4, Issue 5. Tashkent, 2023. Pages 1363–1372.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2023-yil 7-mart, 4/11-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6436466>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2021-yil 13-aprel, PF–6207-son. <https://lex.uz/docs/-5371091>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi 4/11-son qaroriga <https://lex.uz/ru/docs/-6436466>

⁶ Kompleks fikrlash deganda jamoaviy ishlash natijasida yuzaga keladigan fikrlash tushunilib, bu foiz riskini boshqarishni rivojlantirish uchun yangidan yangi g'oyalarning kelib chiqishiga turtki bo'ladi.



8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2022-yil 17-yanvar, PQ–90-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5825745>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2024-yil 19-aprel, PQ–162-son. <https://lex.uz/docs/6898706>
10. Политика управления банковскими рисками. Т.: АО «Национальный банк ВЕД Республики Uzbekistan», 2024. 93 с.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni. 2024-yil, dekabr. Т.: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil. 130 bet; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni. 2023-yil, dekabr. Т.: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yil. 127 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>